

Go'zal nihoya



20:00 / 12.07.2019 2523

25

Bu buyuk boylik Yusufni Allohdan mashg'ul qilib ham qo'ymadi o'zgartirmadi ham.

Yusuf hamisha Allohni zikr qilar va Unga ibodat qilib, Undan qo'rqr edi.

Yusuf Allohning hukmi bilan hukm qilar va Allohning buyruqlarini ijro qilar edi.

Yusuf mulkka ko'p e'tibor bermas va uni katta narsa deb hisoblamas edi.

Yusuf podshoh bo'lib o'lishni va podshohlar qatorida tirilishni istamas edi. Balki, oddiy qul o'limini solihlar qatorida tirilishni xohlar edi.

Yusufning duosi quyidagicha edi: **«Ey Robbim, haqiqatda menga mulk berding va menga tushlarning ta'birini o'rgatding. Ey osmonlaru yerni yaratgan Zot! Sen dunyoyu oxiratda mening valiyimsan. Meni musulmon holimda vafot etdirgin va solihlarga qo'shgin».**

Alloh uning jonini musulmon holida oldi va otalari Ibrohim, Ishoq va Ya'qublar bilan uchrashtirdi.

Ularga va payg'ambarimizga Allohning salavoti va salomlari bo'lsin.